

### KORXONALARDA BYUDJETLASHTIRISH VA XARAJATLARNI NAZORAT QILISHNI NAZARIY ASOSLARI.: XALQARO TAJRIBA VA BIZNING AMALIYOT

*Talaba Azamov Shoxboz*

Korxonalarda byudjetlashtirish va xarajatlarni nazorat qilishni nazariy asoslari. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardan o‘q, ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotining barcha jabhalarida, eng avvalo, iqtisodiy sohadagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish va erkinlashtirish borasida aniq dasturlar ishlab chiqilgan. Unda belgilangan vazifalarning hayotga samarali tadbiriq etilishi natijasida iqtisodiyotda turli mulkchilik shaklidagi xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlar vujudga kela boshladi. Mamlakatimizning iqtisodiy va moliyaviy barqarorlikka erishishida ishlab chiqarish xajmining o‘stirish, pul qadrsizlanishini pasaytirish, eksport xajmini oshirish va boshqa shu kabi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning o‘shishni ta‘minlash kabi muhim omillar bilan birga respublikamizda faoliyat yuritayotgan har bir korxonaning ham xo‘jalik sub‘ekti sifatida iqtisodiy rivojlantirishni taqozo etadi. O‘z navbatida, qishloq xo‘jaligi korxonalari oldida turgan asosiy maqsad o‘z faoliyatlarini diversifikatsiya qilish orqali ishlab chiqarishni oqilona tashkil etish, kam mehnat sarflagan holda, ko‘proq va sifatli mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmatlar ko‘rsatish, iste‘molchilarning talab va ehtiyojlarini to‘la qondirish va shu asosda tadbirkorlik foydasi olishdan iboratdir.

Shu nuqtai nazardan Respublika agrar tarmog‘ida sifatli, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish va eksport salohiyatini oshirishda xalqaro amaliyotda sinalgan “Klaster” nazariyasiga asoslangan tajribadan foydalanish, jumladan, iqtisodiyotimizning to‘qimachilik va yengil sanoat istiqbolida muhim ahamiyat kasb etadi. Har qanday mamlakat, hudud yoki viloyat iqtisodiyotining raqobatbardoshligi, eng avvalo, ishlab chiqarayotgan tovarlarini mahalliy va jahon bozorlaridagi raqobatbardoshligi ya‘ni xaridorgirligi bilan aniqlanadi. Mamlakatning ta‘lim tizimidagi islohotlar va barcha ilmiy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlanishlarning yakuniy ko‘rsatkichi ham tovarlar va xizmatlarimizning zamonaviy bozorlarda raqobatbardoshligining ta‘minlanishi bilan baholanadi.

Paxtadan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish maqsadida Prezidentimizning 2017 yil 14 dekabrda “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi. Shu asosda Vazirlar Mahkamasi paxta-to‘qimachilik ishlab chiqarishlari va klasterlari faoliyatini tashkil etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar rejasini qabul qildi. Pirovardida paxtachilikda ilg‘or agrotexnologiyalar joriy qilinib, klaster korxonalari yordamida fermer xo‘jaliklari ham zamonaviy qishloq xo‘jaligi texnikalari bilan ta‘minlanmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi PF-5853-sonli farmoni bilan O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 - 2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasi tasdiqlandi. Mazkur strategiyaning asosiy maqsadi qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat tarmog‘ining raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan islohotlarni yanada chuqurlashtirishda davlat siyosatini tubdan takomillashtirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, quyidagi ustuvor yo‘nalishlarni qamrab oladi:

- -aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash;
- -qulay agrobiznes muhitini va qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish;
- -soha boshqaruvida davlat ishtirokini kamaytirish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish;
- tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhit muhofazasini ta'minlash;
- davlat boshqaruvining zamonaviy tizimlarini rivojlantirish;
- tarmoqni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan davlat xarajatlarini bosqichma-bosqich diversifikatsiya qilish;
- qishloq xo'jaligidagi ilmiy-fan, ta'lim, axborot va maslahat xizmatlari tizimini rivojlantirish;
- qishloq hududlarini rivojlantirish;
- tarmoq statistikasining shaffof tizimini ishlab chiqish kabilardir. 1

Ushbu vazifalarni amalga oshirishda agrar soha korxonalarida byudjetlashtirish va xarajatlarni nazorat qilish muhim uslubiy asosi sifatida uni tashkil qilishning umumiy tamoyillarini aniqlab olish xisoblanadi. Bu o'z navbatida byudjetlashtirish va xarajatlarni nazorat qilish va uni amal qilishini umumiy mezonlarini aniqlab olish uchun zarur xisoblanadi.

Shuningdek byudjetlashtirish va xarajatlarni nazorat qilish xo'jaliklar ichki doirasida emas, balki doimiy ravishda byudjet, byudjetdan tashqari fondlar, banklar va boshqa kreditorlar, moliya kredit muassasalari, institutsional investorlarning o'zaro munosabatlarida xam aks etadi.

Mamlakat iqtisodining bozor munosabatlariga o'tishi bilan mikro va makro darajalarda rejalashtirishning o'rni yanada oshdi. Xususan, har qanday xo'jalik yurituvchi subekt boshqarish jarayonida nazorat qanchalik muhim hisoblansa, rejalashtirish ham undan kam bo'lmagan muhim funksiyani bajaradi. Umumiy holda, rejalashtirish deyilganda - kelgusida aniq bir ishlarni bajarish uchun sodir etiladigan harakatlarni oldindan belgilab-aniqlab olish tushuniladi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasida rejalashtirishning bir necha turlaridan foydalanishni kuzatish mumkin. Rejalashtirishni bir necha turlarga bolinishidagi asosiy mezon - bu vaqt ko'rsatkichidir. Shu nuqtai nazardan xulosa qilish mumkinki, rejalashtirish borasidagi asosiy maqsad - bu uzoq muddatlarga moljallangan muhim harakatlar yo'nalishini oldindan belgilab olishdir. Shu bilan birgalikda alohida qayd qilish lozimki, rejalashtirish jarayonida ikkita muhim tadbirlar mavjud, Bular:

1. Dasturlar ishlab chiqish;
2. Tegishli byudjetlarni shakllantirish.

Odatda, budget haqida juda ko'pchilik xo'jalik yurituvchi subekt rahbarlari o'zlarini g'ayritabiiy sezishadi. Sababi budget atamasi odatda davlat moliyasiga, davlat budjeti tushunchalari bilan bog'liq deb qarashadi, hamda u xarajatlarni smetasi ko'rinishida tasavvur qilishadi. Xo'jalik yurituvchi subekt miqyosida esa bu tushunchaning asl mohiyatiga tegishli darajada e'tibor qaratilmaydi. Zamonaviy xo'jalik yurituvchi subekt rahbarlari kelajakda faoliyati samarali bolishini, tobora keskinlashib boradigan raqobat birdan ortib borishini astoydil istashsa -

boshqaruv hisobini tashkil qilish va yuritish maqsadida budjet xo'jalik yurituvchi subekt va tashkilotlar miqvosida tushum - butunlay boshqa m a'noni anglatishini e'tirof eta bilishlari lozim.

Bosh budjet xo'jalik yurituvchi subektning barcha bolinmalari yoki yo'nalishlari bo'yicha muvofiqlashtirilgani rejasi hisoblanadi. U ikki asosiy budjet shakli: tezkor (operativ) va moliyaviy budjetlarni o'z ichiga oladi.

Xo'jalik yurituvchi subekt rahbariyati tayyor mahsulot zahirasini oldingi holatda saqlab qolish yoxud uni ko'paytirish yoki kamaytirish borasidagi tegishli qarorga kelishi kerak. Tayyor mahsulot zahirasi hajmi, budjet muddati boshlanishidagi mavjud bo'lgan mahsulot hajmi hamda sotuv hajmiga oid ma'lumotlardan kelib chiqib ishlab chiqarish jadvali tuziladi. Xom-ashyo hamda materiallarni sotib olish va ulardan foydalanish budjeti. Xom-ashyo hamda materiallarni sotib olish va ulardan foydalanishning rejadagi ehtiyoji bir hujjatda, shuningdek alohida-alohida hujjatlarda ham tayyorlanishi mumkin. Ko'pgina xo'jalik yurituvchi subektlar yagona hujjatni afzal deb bilishadi. Bu budjetda ishlab chiqarish rejasini bajarish uchun xarid qilish muddatlari, xom-ashyo, materiallar va yarim fabrikalar turlari hamda soni aniqlashtiriladi. Xomashyo materiallaridan foydalanish ishlab chiqarish budjeti va moddiy zahiralarda darajasida kutilayotgan o'zgarishlardan kelib chiqadi. Har bir dona ishlab chiqarilayotgan mahsulotning narxi va uning sonini ko'paytirish orqali xom-ashyo materiallarini xarid qilish budjeti aniqlanadi. Pul mablag'lari harakati xo'jalik yurituvchi subektning barcha mablag'lari aylanmasining samarasini belgilovchi, unga ta'sir ko'rsatuvchi muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Bosh budjetni ishlab chiqish jarayonida avval barcha davri u budjetlar, xususan, kapital xarajatlar budjeti. kutilayotgan foyda va zarar to'g'risidagi budjetlar va shu kabilar tuzilganidan so'ng pul mablaglari budjeti tuziladi. Pul mablaglari budjeti (yoki kutilayotgan pul aylanmalari) bu kelgusi davrda bo'ladigan pul mablaglari tushumi va to'lovlar rejasi bo'lib. bosh budjetda ko'rsatilgan barcha kelgusi tadbirlar bilan bogliq pul aylanmalarini o'z ichiga qamrab olgan. Umuman olganda, bu budjet davri va kunidagi pul mablaglari budjetida kutilayotgan yakuniy saldo va budjet tuzilayotgan yil har bir ovining moliyaviy holatini ko'rsatadi. Ana shu budjet ko'rsatkichlari asosida. rahbar. o'z xo'jalik Yurituvchi subekti uchun eng ko'p va eng kam pul mablaglari davrlarini rejalashtirishi mumkin. Pul mablaglari hisobidagi qoldiqning kattaligi moliyaviy mablaglari toliq samara bilan ishlatilmaganligini bildiradi. Kichik qoldiq xo'jalik yurituvchi subekt o'z vazifalari bo'yicha to'lovlarni amalga oshirishga qobil emasligini ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun. pul mablaglarini rejalashtirishni puxta ishlab chiqish lozim. Pul mablaglari budjeti ikki maqsadni ko'zlaydi. Birinchidan. kutilayotgan buxgalteriya balansini yakunlash uchun budjet davri oxiriga pul mablaglari hisob raqamidagi yakuniy qoldiqni ko'rsatadi. Ikkinchidan, budjet davri ichida har bir oyning yakuniga budjet mablaglari qoldig'ining istiqbolini belgilab. moliyaviy resurslarning ortiqchaligini yoki etishmaydigan davrlari aniqlaydi.

Iqtisodiy islohotlarning chuqurlashib borishi, O'zbekiston Respublikasining jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvi o'z navbatida, mavjud qonunchilik asosini doimiy ravishda takomillashtirib, uni xalqaro me'yorlar va standartlarga moslashtirib borishni taqozo qiladi. Korxonalarni boshqarish, uning oldiga qo'yilgan reja ko'rsatkichlariga doir vazifalarni bajarish maqsadida xo'jalik faoliyati ustidan kundalik kuzatib borishni talab qiladi. Bunday kuzatish va boshqarish xo'jalik hisobi yordamida amalga oshiriladi.

1941 yilda Amerika buxgalterlar uyushmasi (American Institut of Certified Public Accountants-AICPA) tomonidan "Hisob - moliyaviy xususiyatga ega voqea, hodisa va jarayonlarni tasniflash, registrlar, schetlarda pul birligida qayd etish hamda natijalarni yozuvlarda ifodalash bilan bog'liq san'atdir", degan ta'rif berilgan.



Bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatni rivojlanishi buxgalterdan hisob ishlarini yuritish bilan birga ichki, tashqi foydalanuvchilarga axborot yetkazib berish, rejalashtirish, tahlil qilish va faoliyat natijalari bo'yicha xulosa qilish kabi vazifalarni ham bajarishni talab etmoqda. Shu bois 1970 yilda Amerika buxgalterlar uyushmasi (American Institut of Sertified Public Accountants-AICPA) buxgalteriya hisobining funksiyasi "xo'jalik subekti bo'yicha boshqaruv qarorlari qabul qilish uchun zarur moliyaviy xarakterdagi sifatli axborotlar bilan ta'minlash" dan iborat degan xulosani bayon etadi.

Iqtisodiyotni transformatsiyalash va diversifikatsiyalash sharoitida mulkchilik shakllari turli xil bo'lgan sub'ektlarning tashkil topish jarayonida ularni boshqarish, faoliyatini nazorat va tahlil qilish; ma'muriyat tomonidan tezkor qarorlarning qabul qilinishiga asos bo'ladigan zarur ma'lumotlarni asosan buxgalteriya hisobi taqdim etadi.

Shu bilan birga bu fan boshqa mamlakatlar buxgalteriya hisobini yuritish usullarining ilg'or shakllarini iqtisodiyot tarmoqlariga joriy etish yo'llarini ishlab chiqadi va amaliyotga joriy etishga tavsiya etadi.

Har bir jamiyatning ham asosiy maqsadi zaruriy buyumlarni ishlab chiqarish, ayirboshlash, taqsimlashdan iborat. Bu maqsadni amalga oshirish uchun kishilar ijtimoiy hayotida sodir bo'layotgan voqea va hodisalarni kuzatish, jamiyatda mavjud bo'lgan mehnat buyumlari, mehnat qurollarini, hamda mehnat jarayonlarini hisobga olib borish zarur bo'ladi.

### Xulosa

O'zbekiston Respublikasining sanoat raqobatbardoshligi bo'yicha reytingi Birlashgan Millatlar Tashkilotining sanoatni rivojlantirish bo'yicha tashkiloti (UNIDO) tomonidan ikki yil kechikish bilan ishlab chiqiladi. Bunda oxirgi hisobot 2020 yil yakunlari bo'yicha 2022 yilda chop etilgan.

Reyting asosini ishlab chiqaradigan sanoat rivojlanishining bir qancha asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha hisoblangan sanoat raqobatbardoshligining kompozit indeksi tashkil etadi. Buning uchun o'rganilayotgan mamlakat bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlardan foydalaniladi. Shundan kelib chiqib, Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti mutaxassislari ishlab chiqaradigan sanoatni rivojlantirish bo'yicha 2017-2022 yillarga oid ko'rsatkichlar va O'zbekistonning UNIDO reytingidagi o'rnini tahlil qildi.

Tahlilga ko'ra, O'zbekiston 2017-2020 yillarda UNIDO reytingida 95-o'rindan 89-o'ringa, ya'ni 6 pog'onaga ko'tarildi va bu e'tiborga molik yutuq. Bundan tashqari, O'zbekiston Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida sanoat raqobatbardoshligi indeksi bo'yicha Qozog'istondan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Bu yutuqlarga oxirgi yillarda ishlab chiqaradigan sanoatni jadal rivojlantirish va modernizatsiya qilish yordamida erishildi.

Shuningdek, sanoat raqobatbardoshligi indeksiga kiritilgan ayrim asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha O'zbekistonda quyidagi ijobiy o'zgarishlarga erishildi. Xususan, ishlab chiqaradigan sanoatning yalpi ichki mahsulot (YAIM) dagi ulushida barqaror o'sish tendensiyasi qayd etildi, ya'ni 2017 yilda 15,5 foiz, 2022 yilda esa 20,5 foizdir. Sohada aholi jon boshiga mahsulot ishlab chiqarish hajmi har yili o'rtacha 4,7 foizdan barqaror ravishda o'sib bordi.

O'zbekiston jahon miqyosida mahsulotlarning raqobatbardoshligini mustahkamlash bo'yicha tobora yaxshiroq natijalarga erishmoqda. Har yili jahon bozorida mahalliy sanoat mahsulotlariga talab ortib, eksport geografiyasi kengaymoqda. Buning natijasida tovarlar eksportida ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari ulushi 76,6 foizdan 83,3 foizga oshdi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida" gi Qonuni. №404. 2016 yil 13 aprel
2. O'zbekiston Respublikasi «Auditorlik faoliyati to'g'risida» gi Qonuni (yangi tahrir). - T.: 2000 yil (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga eng asosiy va dolzarb siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy masalalar va jamiyatni demokratik rivojlantirish bo'yicha Murojaatnomasi. 2017 yil 22 dekabr'.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish va ichki bozorni to'ldirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. 2009 yil 26 yanvar, PQ-1047-son.
5. O'zbekiston Respublikasining "Xususiy korxonalar to'g'risida"gi 2003 yil 11 dekabrda Konuni. // Solik va bojxona xabarlar, 2004 yil 10 fevral, №6.
6. Abdullaev R.A. Buxgalterskiy uchastki i audit. izd. "IQTISOD MOLIYA". Toshkent. 2010
7. "Bozor, pul va kredit" jurnal. –T.: 2010-2012 yillar.
8. Ibragimov A.K. Ishlab chiqarish harajatlarini hisobga olish va audit: Iqtisod fanlari doktori ... dissertatsiya avtoreferati. - T.: O'zR BMA, 2018 - 32 b.
9. O'razov K.B. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida buxgalteriya hisobining kontseptual masalalari K.B. Urazov. - T.: Fan nashriyoti, 2015.
10. Shoalimov A.X., Tojiboeva SH.A. Moliyaviy va Boshqaruv tahlili. O'quv qo'llanma, TDIU:2021-280 b
11. [www.gov.uz](http://www.gov.uz).
12. [www.mf.uz](http://www.mf.uz)
13. [www.stat.uz](http://www.stat.uz)
14. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)